

PUDRAT SHARTNOMASI

2022 y. «10» 6

2022-236-4-66-OB-
son

Chiroqchi sh.

Keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladigan Chiroqchi tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi nomidan Nizom asosida ish ko'ruvchi A.K.Abduraxmonov bir tomondan va keyingi o'rinlarda "Pudratechi" deb yuritiladigan "Omad kafolat" x/k nomidan Nizom asosida ish ko'ruvchi O. Nurimov ikkinchi tomondan doir mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

Chiroqchi tuman hokimining 2022 yil 21 apreldagi VI-63-41-4-66-K/22-sonli qaroriga asosan Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dagi mablag'larni mazkur tadbirlarga yo'naltirish to'g'risidagi qaroriga asosan, Chiroqchi tuman Kishmishtepa MFY Kunchiqar qishlog'ining ichki xujali yulini 1.990 km qismini joriy ta'mirlash ishlari uchun loyxa smeta xamda ekspertiza xujjatlari asosida shartnomasini tuzdilar.

I. TARIFLAR

1. Mazkur shartnomada quyidagi tariflar qo'llaniladi: ijro hujjatlari - naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalarga muvofiqligi to'g'risidagi yozuvlar bilan birgalikda ob'ekt qurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarning sifatini va ishlarni bajarishda qo'llanilgan materiallar, konstruksiyalar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiqlanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatli konstruksiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'g'risidagi dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarning yakka tartibdagi sinovi to'g'risidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari hamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar; qurilish maydoni - mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratechiga berilgan yer uchastkasi. Ob'ektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi; vaqtinchalik inshootlar - Pudratechi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan har qanday tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar; berkitiladigan ishlar - sifati va aniqligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lmagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlar; shartnoma narxini bo'lib chiqish - ishlarning har bir bosqichi va/yoki turlari qiymatini aniq belgilagan holda shartnoma bo'yicha ob'ektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

II. SHARTNOMA MAVZUSIVA AMAL QILISH MUDDATI

2. Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga 968 944 500 (To'qqiz yuz oltmish sakkiz million to'qqiz yuz qirq to'rt ming besh yuz) so'm bo'yicha bajarish majburiyatini oladi. Buyurtmachi esa Pudratchiga qurilish ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi. Shartnoma ikkala taraf tomonidan imzolaniib G'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab kuchga kiradi va "31" Dekabr 2022 yilgacha amal qiladi.

III. SHARTNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI

3. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan bajarilgan, tanlov savdosi (tender) natijasida aniqlangan va tender komissiyasining qarori (2022 yil "08" Iyundagi 96046-son bayonnoma) bilan tasdiqlangan ishlar qiymati barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan holda joriy narxlarda 968 944 500 (Tuqqiz yuz oltmish sakkiz million tuqqiz yuz qiriq turt ming besh yuz) so'mni tashkil etadi.

4. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno: qurilish qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo'lganda; ishlar hajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;

5. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

IV. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI

6. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi mazkur shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan ishlarini bajarish uchun: barcha ishlarni mazkur shartnomada hamda unga __ - ilovaga muvofiq ishlarini bajarish jadvalida nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda o'zining kuchlari va/yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish hamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish; __ - ilovaga muvofiq qurilish maydoniga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikasini yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlash; qurilish maydoni hududida vaqtinchalik inshootlar qurish; Buyurtmachini pudrat shartnomalari tuzilishi davomida subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to'g'risida xabardor qilish;

qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muhitni, o'tqazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muhofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash, shuningdek yoritish chiroqlari o'rnatish; qurilish tavakkalchiliklarini sug'urta qilish; mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektni foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o'ziga tegishli

qurilish mashinalari va asbob-uskunalari, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar hamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish; qurilish maydoni qo'riqlanishini ta'minlash; mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

7. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi hamda ob'ektning foydalanishga tayyor holda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

V. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI

8. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi: mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda mazkur shartnomaga — ilovaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lgan qurilish maydonini ob'ekt qurilishi va qurilish tugallanguncha bo'lgan davrda dalolatnoma bo'yicha Pudratchiga berish; ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funktsiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash; Pudratchining barcha murojaatlarini o'n kun muddatda ko'rib chiqish va qaror qabul qilish; moliyalashtirish jadvaliga binoan Pudratchiga —ilovaga muvofiq avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish; mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab 2 oy davomida Pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro hujjatlari ro'yxatini taqdim etish; mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi;

VI. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI

9. Shartnoma: milliy valyuta "so'mda" o'zaro hisob-kitob qilinganda - tomonlar uni imzolagan paytdan boshlab; keyinchalik EA Vga konvertatsiya qilgan holda milliy valyutada "so'mda" o'zaro hisob-kitob qilinganda - shartnoma qonun hujjatlariga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin kuchga kiradi.

10. Pudratchi mazkur shartnomaga ilova qilinadigan moliyalashtirish jadvaliga muvofiq birinchi avans to'lovi tushgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.

11. Tanlov savdolari natijasi bo'yicha aniqlangan qurilishning davom etish vaqti ishlar boshlangan kundan e'tiboran 60 kuni tashkil etadi.

12. Mazkur shartnoma bo'yicha ishlar ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

VII. TO'LOVLAR VA HISOB-KITOBLAR

13. Buyurtmachi Pudratchiga shartnoma bo'yicha ishlar umumiy joriy qiymatining 30 foizi miqdorida avans o'tkazadi, bu 290 683 350 (Ikki yuz toqson million olti yuz sakson uch ming uch yuz ellik) so'mni tashkil etadi.

14. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish uchun moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvallari asos hisoblanadi (-ilova).

15. Joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlar sifati tekshirilgandan keyin, berilgan avansni hisobga olgan holda, ishlarni bajarish va moliyalashtirish jadvalariga muvofiq ob'ektning umumiy shartnomaviy joriy qiymatining 50 foizigacha doirasida amalga oshiriladi.

16. Ob'ektning shartnomaviy joriy qiymatining qolgan 50 foizi uchun Buyurtmachi va Pudratchi o'rtasidagi uzil-kesil hisob-kitob qurilish tugallangandan keyin va ob'ekt qabul komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilingandan keyin ikki bosqichda;

ob'ekt qabul komissiyasi tomonidan qabul qilingan kundan boshlab bir oy mobaynida - ishlar qiymatining kamida 45 foizi miqdorida;

mazkur shartnomada belgilangan kafolatli muddat tamom bo'lgandan keyin - ishlar qiymatining 5 foizigacha miqdorida, biroq moliya yili tugamasdan amalga oshiriladi.

17. Pudratchi ob'ekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektga mulk huquqini o'zida saqlab qoladi. Ob'ekt Buyurtmachiga topshirilgunga qadar ob'ektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.

18. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarni shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab o'ttiz kun mobaynida bajarmagan taqdirda, Pudratchi bu haqda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachini yozma ravishda xabardor qilgan holda, shartnomaga o'zgartirishlar kiritish yoki shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga egadir. Bunda Buyurtmachi Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'lashdan ozod qilinmaydi.

VIII. ISHLARNI BAJARISH

19. Buyurtmachi qurilish maydonida o'z vakilini - texnik auditorni tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalarning shartnoma shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi.

20. Texnik auditor ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'siqsiz tanishish huquqiga egadir.

21. Pudratchi texnik auditorni ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor Pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarni hal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

22. Pudratchi ishlarni bajarish loyihasiga va mazkur shartnomaning VI bo'limida ko'rsatilgan muddadlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasi va jadvaliga binoan ob'ektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

23. Pudratchi ob'ektda ishlarni olib borish tartibini davlat arxitektura-qurilish nazorati organlari bilan kelishadi va unga rioya etilishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

24. Qurilish maydonida umumiy tartibni ta'minlash Pudratchining vazifasi hisoblanadi.

25. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma bilan bir vaqtda Pudratchiga ortiqcha tuproq va qurilish axlatini joylashtirish va yetishmayotgan tuproqni qazib olish uchun joy ajratish to'g'risidagi hujjatlarni beradi.

26. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda qurilish maydonini belgilash bo'yicha ishlarni bajarish va ob'ektni privyazka qilish uchun Pudratchiga geodeziya nuqtalari, ularning koordinatlari va balandlik belgilarini taqdim etadi.

27. Pudratchi geodeziya nuqtalariga, liniyalar va darajalarga nisbatan ob'ektning to'g'ri va zarur tarzda belgilanishi, shuningdek balandlik belgilari, o'lchamlari va bo'lish o'qlarining muvofiqligi to'g'ri joylashganligi uchun javob beradi.

Agar ishlarni bajarish jarayonida amalga oshirilgan bo'lish va geodeziya ishlarida xatolar aniqlansa, Pudratchi Buyurtmachi bilan kelishgan holda tegishli tuzatishlarni o'z hisobidan kiritadi.

28. Pudratchi geodeziya bo'lish ishlarida o'rnatiladigan koordinatlar va balandliklar, geodeziya belgilarining joylashishi sxemalari va jadvalarini saqlaydi, ishlarni bajarish davrida va ular tugallangandan keyin ularni dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachiga beradi.

29. Qurilish maydonida ishlarni bajarish davrida kommunikatsiyalarni vaqtincha ulashni va ulash nuqtalarida yangidan qurilgan kommunikatsiyalarni ulashni Pudratchi amalga oshiradi.

30. Pudratchi o'zi tomonidan qurilishda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va tizimlar sifati loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan spetsifikatsiyalarga, davlat standartlariga, texnik shartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlariga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lishini kafolatlaydi.

31. Alohida mas'uliyatli konstruksiyalar va berkitiladigan ishlar tayyor bo'lishiga qarab ularni taqabul qilish boshlanishidan 2 kun oldin Pudratchi Buyurtmachini va "Davlat arxitektura-qurilish nazorati" inspeksiya yozma ravishda xabardor qiladi.

32. Qabul qilinadigan konstruksiyalar va ishlarning tayyorligi Buyurtmachi va Pudratchi tomonidan mas'ul konstruksiyalarni oraliq qabul qilish dalolatnomalari hamda ularning "Davrixitektqurilishnazorat" inspeksiya bilan kelishgan shartlarida berkitiladigan ishlar tekshiruv dalolatnomalari bilan tasdiqlanadi.

33. Pudratchi Buyurtmachining ishlarni bajarish daftariga kiritilgan yozma ruxsatnomasidan keyingina keyingi ishlarni bajarishga kirishadi.

34. Agar berkitiladigan ishlar Buyurtmachining tasdig'isiz bajarilgan bo'lsa yoki u bu haqda xabardor qilinmagan bo'lsa, yoki kechikib xabardor qilingan bo'lsa, u holda uning talabi bo'yicha Pudratchi Buyurtmachining ko'rsatmasiga muvofiq berkitiladigan ishlarning istalgan qismini o'z hisobidan ochishga, so'ngra esa uni tiklashga majburdir.

Pudratchi Buyurtmachining manfaatlariga jiddiy ta'sir qilmaydigan ish hujjatlaridan mayda chetga chiqishlarni Buyurtmachining roziligisiz amalga oshirsa, u agar bularning qurilish sifatiga ta'sir etmaganligini isbotlasa javobgar hisoblanmaydi.

35. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilari tomonidan ishlarning sifatisiz bajarilganligini aniqlasa, u holda Pudratchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir, ushbu shartnoma 34-bandining ikkinchi xat boshida ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

Agar Pudratchi sifatisiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechikishi oqibatida yetkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.

36. Pudratchi qurilish maydonini va unga tutash ko'cha polosasini, shu jumladan yo'l uchastkalari va yo'laklarni supurib-sidiradi va ozoda saqlaydi, qurilish davrida maydondan qurilish axlatini Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan joyga chiqarib tashlaydi.

37. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallanguncha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarning borishi, Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro munosabatlarida ahamiyatga ega bo'lgan hollar va holatlar (ishlarning boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi sanasi, ishlarning qabul qilib olinishi, o'tkazilgan sinovlar, materiallar o'z vaqtida yetkazib berilmasligi bilan bog'liq to'xtab qolishlar, qurilish texnikasining ishdan chiqishi to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan qoniqmasa, u holda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon qiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

IX. ISHLARNI QO'RIQLASH

38. Pudratchi ishlar boshlanishidan qurilish tugallanguncha va qurilishi tugallangan ob'ekt Buyurtmachi tomonidan qabul qilib olingunga qadar chetlari to'silgan qurilish maydoni hududida materiallar, asbob-uskunalar, qurilish texnikasi va boshqa mol-mulk zarur darajada qo'riqlanishini ta'minlaydi.

39. Tiklangan binolar va imoratlar, shuningdek materiallar, asbob-uskunalar va boshqa mol-mulk ob'ekt qabul qilib olinganidan keyin saqlanishi uchun Buyurtmachi javob beradi.

X. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI

40. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

41. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rilishini muhokama qiladilar.

42. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

XI. QURILISHI TUGALLANGAN OB'JEKTNI QABUL QILIB OLISH

43. Qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish shartnomani imzolash sanasida amalda bo'lgan belgilangan tartibga muvofiq mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlar tomonlar tarafidan bajarilgandan keyin, shuningdek qurilishi tugallangan ob'ektlarni foydalanishga qabul qilib olishning belgilangan qoidalariga binoan amalga oshiriladi.

44. Ob'ektlar ularning foydalanishga tayyorligi to'g'risida Pudratchining yozma bildirishnomasi Buyurtmachi tomonidan olingan kundan boshlab 10 kun mobaynida qabul qilib olinadi.

45. Pudratchi qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish boshlanishidan 5 kun oldin mazkur shartnomaning V bo'limiga muvofiq Buyurtmachiga Buyurtmachi tomonidan

belgilangan tarkibda ikki nusxada ijro hujjatlarini beradi. Pudratchi Buyurtmachiga ushbu hujjatlar to'plami amalda bajarilgan ishlarga to'liq mos kelishini yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

46. Qabul qilib olingan paytdan boshlab ob'ekt Buyurtmachining mulkiga aylanadi.

XII. KAFOLATLAR

47. Pudratchi: bareha ishlar to'liq hajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini; loyiha hujjatlariga hamda qurilish me'yorlari, qoidalari va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish sifatini; o'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va tizimlar sifatini, ularning loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatizatsiyalarga, davlat standartlariga hamda texnik shartlarga muvofiqligini; ishlarni qabul qilish va ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilishni; ob'ektdan foydalanilganda muhandislik tizimlari va uskunalarining foydalanish qoidalari muvofiqligini kafolatlaydi.

48. Ob'ekt va unga kiradigan muhandislik tizimlari, asbob-uskunalar, materiallardan foydalanish va ishlarning kafolatli muddati tomonlar qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlab kamida 3 oy etib belgilanadi. Ob'ekt tomonining kafolatli muddati kamida 12 oy etib belgilanadi.

49. Agar ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlanib, ular bartaraf etilgunga qadar foydalanishni davom ettirish imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa, u holda kafolat muddati nuqsonlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi. Nuqsonlar Pudratchi tomonidan uning o'z hisobidan bartaraf etiladi.

Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

Agar Pudratchi bajarilgan ishlardagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarining kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u holda Buyurtmachi mazkur shartnomaning VII bo'limida nazarda tutilgan kafolat summasini Pudratchidan ushlab qolish huquqiga ega.

50. Pudratchi nuqsonlar va chala ishlar ko'rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh tortgan taqdirda, ularni tekshirib chiqish "Davarxitektqurilishnazorat" organlari tomonidan amalga oshiriladi, bu tomonlarning ushbu masala bo'yicha xo'jalik sudiga murojaat qilishini istisno etmaydi.

XIII. SHARTNOMANI BEKOR QILISH

51. Buyurtmachi: shartnoma kuchga kirgandan keyin qurilishning boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda; ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko'paygan holda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda; Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda; qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

52. Pudratchi: ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda; Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda; qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

53. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish bir oy muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Pudratchiga to'laydi.

54. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

55. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

56. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

XIV. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI

57. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon: ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi:

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

58. Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarining bajarilmagan qismining 05 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 30 foizidan oshmasligi lozim.

Penya to'lanishi Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

59. Shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlar hajmini tasdiqlashdan asossiz ravishda bosh tortganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga o'zi tasdiqlashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 30 foizi miqdorida jarima to'laydi.

60. Pudratchi ob'ektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 05 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ob'ekt shartnomaviy joriy qiymatining 30 foizidan oshmasligi lozim.

Buyurtmachi tomonidan topilga nuqsonlar va kachiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmagani uchun Pudratchi buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 05 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 30 foizidan oshmasligi kerak.

Penya to'lash Pudratchini ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

61. Agar bajarilgan ishlar sifati belgilangan standartlarga, qurilish me'yorlari va qoidalariga, ish hujjatlariga muvofiq bo'lmasa, u holda Buyurtmachi "Davarxitektqurilishnazorat" inspeksiyasining xulosasi asosida ob'ektni qabul qilish va uning uchun haq to'lashdan bosh tortishi, shuningdek Pudratchidan sifati zarur darajada bo'lmagan ishlar qiymatining 30 foizi miqdorida jarima undirish huquqiga ega.

62. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur moddada nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomonga boshqa tomon tarafidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalanadigan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

63. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

XV. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

64. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar hal etolmasa ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

XVI. ALOHIDA SHARTLAR

65. Mazkur shartnoma imzolanganidan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

66. Pudratchi qurilish ob'ektiga yoki uning alohida qismlariga tegishli ish hujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish huquqiga ega bo'lmaydi.

67. Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

68. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan har qanday ahdlashuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

69. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u holda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga haq to'lashni kechiktirishga haqlidir.

70. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

71. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi.

XVII. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLASHUV

72. Ushbu shartnomaning har bir tomoni o'ziga nisbatan qo'llaniladigan barcha, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlaridagi Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlar va talablarni tushunishi haqida bir birini ishoniradi va ularga amal qilishni kafolatlaydi.

73. Iste'molchi ushbu shartnoma amalda bo'lgan butun davr mobaynida u (shuningdek uning mansabdor shaxslari, direktori, xodimlari, agentlari, va boshqa vakillari) Ta'minotchi korxonaning manfaatlarida uning agenti yoki vakili sifatida harakat qilib, Ta'minotchi korxonaning hamda O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlaridagi Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlar va talablariga qat'iy rioya etish majburiyatini oladi

XVIII. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARIVA YuRIDIK MANZILLARI:

BUYURTMACHI:	PUDRATCHI:
Nomi: Chiroqchi tumani hokimligi obodonlashtirish boshqarmasi	Nomi: "Omad kafolat" x/k
Manzili: Chiroqchi tumani xonjon kuchasi 2/43 uy	Manzili: Chiroqchi tumani
Shx/r: 401722860102427065200110011	Shx/r: 20208000200983190001
INN: 204 955 228	Bank nomi: Ipatepa bank shahrisabiz filiali

G'aznachilik nomi: O'zRes Moliya Vazirligi
G'aznachiligi
x/r: 23402000300100001010 INN: 201 122 919
Bank: Toshkent sh. Markaziy bank BBXXKMMFO:
00014

MFO: 00165
INN:305 788 724

Rahbar: A.K. Abduraxmonov

Rahbar: N. Nurimov



JANUB MEMOR
INVEST

REPUBLIC OF UZBEKISTAN

1999

shirok

1999



Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"OMAD KAFOLAT" Xususiy korxonaga

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan hokimiy to'liq nomi)

"OMAD KAFOLAT" XK

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

05.10.2018^o

641023

ro'yxal raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil)

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR):

305788724

Tashkiliy-huquqiy
shakli:

Xususiy korxonaga

Joylashgan joyi:

Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumani, Taraqqiyot, Ravot qishlog'i,

Guvohnoma:

Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumani, DAVLAT
XIZMATLARI MARKAZI

toimonidan
berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi)



Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumani
Davlat xizmatlari markazi
tomonidan 2019-yil 15 Noyabrda
215349-son reestr
raqami bilan

«QAYTA RO'YXATGA OLINGAN»

«OMAD KAFOLAT» Xususiy
korxonasining 2019-yil 15 Noyabrda 1-son
umumiy yig'ilishi
bayonnomasi bilan

«TASDQLANGAN»



«OMAD KAFOLAT»

ХУСУСИЙ КОРХОНАСИНИНГ

НИЗОМИ

Чирокчи тумани
2019 йил.

Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 96046 на приобретение Chiroqchi tuman Kishmishtera MFY Kunchiqar qishlog'ining ichki xujali yulini 1.990 km qismini joriy ta'mirlash ishlari uchun

Способ проведения электронный

Дата 08.06.2022

Время рассмотрения 08.06.2022 09:43

Конкурсная комиссия Туман хокимлиги Ободонлаштириш бошкармаси, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	NORMO'MINOV ISOMIDDIN ZIYADULLAYEVICH	бошкарма бошлиги	Чирокчи туман ободонлаштириш бошкармаси
Секретарь комиссии	NURMUXAMMEDOV BAHODIR G'AYRAT O'G'LI	бош хисобчи	Чирокчи туман ободонлаштириш бошкармаси
Член комиссии	ALLAYOROV ABDULLA AMIRQULOVICH	бошкарма биргадери	Чирокчи туман ободонлаштириш бошкармаси
Член комиссии	JO'RAYEV ANVAR ESHDAVLATOVICH	хужалик мудир	Чирокчи туман ободонлаштириш бошкармаси
Член комиссии	BOBOQULOV SARVAR RASULOVICH	Бошкарма мутахассиси	Чирокчи туман ободонлаштириш бошкармаси
Член комиссии	DAVLATOV ANVAR ABDULLAYEVICH	Нур булими бошлиги	Чирокчи туман ободонлаштириш бошкармаси

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 08.06.2022 года № лота 96046.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 80.00 / Весовой коэф. ценовой части: 20.00)

Мин. балл: 55

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуга по текущему ремонту автомобильных дорог
Подробное описание	Chiroqchi tuman Kishmishtera MFY Kunchiqar qishlog'ining ichki xujali yulini 1.990 km qismini joriy ta'mirlash ishlari uchun
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	976 944 938.00
Стартовая сумма	976 944 938.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Танлов иштирокчисининг иш ҳақи жамғармаси ва ҳодимлар ўртача сони бўйича кўрсаткичлар

Тип: Текстовое значение

Описание: Ходимлар сони ва тажрибаси тугрисида маълумотлар

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ЧП OMAD KAFOLAT	10	файл жойлаштирилди	8	Экспертная		
JANUB ME MOR INVEST XK	10	файл жойлаштирилди	7	Экспертная		

Критерий №2 Танлаш таклифининг қайтариб олинмаслигини таъминлайдиган закатат ёки банк кафолатининг мавжудлиги

Тип: Текстовое значение

Описание: Талабгор ташкилот таъмирлаш ишларини сифатли ва белгиланган муддатда тугатишини асословчи танлов предмети буйича тегишли банк муассасасидани кафолат хати тақдим этилиши лозим. Шунингдек талабгор ташкилотнинг банк ҳисоб рақамида танлов претметининг кмида 20% миқдорда маблағлар қолдиги бўлиши. Агар ушбу талаб буйича маълумотлар тўлиқ ва сифатли бўлмаган тақдирда, комиссия таркиби томонидан иштирокчи таклифи рад этилиши, ёки қисман баҳоланиши мумкин

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ЧП OMAD KAFOLAT	30	файл жойлаштирилди	25	Экспертная		
JANUB ME MOR INVEST XK	30	файл жойлаштирилди	24	Экспертная		

Критерий №3 Танловдаги объектга ўхшаш объектларда охириги 3 йиллик иш тажрибаси. Шунингдек жорий танлаш объекти ҳолатини ўрганиш

Тип: Текстовое значение

Описание: Охириги 3 йил давомида бажарилган ишлари буйича Ф-2 ва Ф-5 маълумотлари. Шунингдек аввалги таъмирлаш ишлари буйича тегишли буюртмачилар томонидан ижобий тавсияномалар, ёки хулосалар. Жорий танлаш объектини жойида ўрганилганлигини тасдиқловчи ҳужжатлар (махалла ва қишлоқлар мутасадди вакилларида олинган маълумотнома ва бошқа ҳужжатлар)

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ЧП OMAD KAFOLAT	16	файл жойлаштирилди	13	Экспертная		
JANUB ME MOR INVEST XK	16	файл жойлаштирилди	12	Экспертная		

Критерий №4 Танлов иштирокчиси ҳақида умумий маълумотлар

Тип: Текстовое значение

Описание: Низом ва гувоҳномадан, таъсисчи ва раҳбарнинг паспорт нусхалари. СТИР ракамлари. Статистик маълумотлар. Бошқа мавжуд ҳужжатлар

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ЧП OMAD KAFOLAT	5	файл жойлаштирилди	4	Экспертная		
JANUB ME MOR INVEST XK	5	файл жойлаштирилди	3	Экспертная		

Критерий №5 Танлов иштирокчиси томонидан, танловда иштирок этишини таъминлайдиган малака хужжатлари мавжудлиги

Тип: Текстовое значение

Описание: Танлашда иштирок этиши учун малака хужжатлари (Танлашда иштирок этиш учун харид комиссияси раиси номига ёзилган ариза, танлаш предмети бўйича таклиф, Молиявий ҳисоботлар, иштирокчининг қайта ташкил этиш, тугатиш ёки банкротлик ҳолатларида эмаслиги, буюртмачи билан суд ёки арбитраж муносабатларга киришмаганлигини тасдиқловчи хужжатлар, кафолат хати, харид комиссияси раиси номига ёзилган Коррупция кўринишларига йўл қўймаслик бўйича ариза)

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ЧП OMAD KAFOLAT	15	файл жойлаштирилди	12	Экспертная		
JANUB ME MOR INVEST XK	15	файл жойлаштирилди	11	Экспертная		

Критерий №6 Танлов иштирокчисининг салоҳияти

Тип: Текстовое значение

Описание: Пудрат ташкилоти электрон рейтинги тугрисида маълумот. Тўловга қодирлиги ва айланма маблағлар билан таъминланганлиги. Ҳисоб рақамидаги маблағлар қолдиғи. Солик, банк кредитлари ва бошқа туловлардан қардорлиги мавжуд эмаслиги тўғрисидаги маълумотлар.

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ЧП OMAD KAFOLAT	24	файл жойлаштирилди	19	Экспертная		
JANUB ME MOR INVEST XK	24	файл жойлаштирилди	18	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
JANUB ME MOR INVEST XK	976 944 938.00	975 944 938.00	06.06.2022 12:00:14	19.86
ЧП OMAD KAFOLAT	976 944 938.00	968 944 500.00	04.06.2022 17:56:25	20.00

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
JANUB ME MOR INVEST XK	60*	19.85654	79.85654
ЧП OMAD KAFOLAT	64.8	20	84.8

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 96046 от 08.06.2022 года на приобретение Chiroqchi tuman Kishmishtera MFY Kunchiqar qishlog'ining ichki xujali yulini 1.990 km qismini joriy ta'mirlash ishlari uchun определила победителем:

ЧП OMAD KAFOLAT
305788724

и резервный исполнитель: JANUB ME MOR INVEST XK (303430594)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Член комиссии	ALLAYOROV ABDULLA AMIRQULOVICH	Согласен	
Член комиссии	JO'RAYEV ANVAR ESHDAVLATOVICH	Согласен	
Председатель комиссии	NORMO'MINOV ISOMIDDIN ZIYADULLAYEVICH	Согласен	
Член комиссии	DAVLATOV ANVAR ABDULLAYEVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyihaning turi: Shartnoma

2. Loyihaning nomi: "Pudrat shartnomasi to'g'risi"da

Chiroqchi tumani Obodonlashtirish boshqarmasi bilan "Omad kafolat" x/k o'rtasida qiymati 968.944.500 (To'qqiz yuz oltmish sakkiz million to'qqiz yuz qirq to'rt ming besh yuz) so'mni tashkil qilgan shartnoma to'g'risida.

3. Loyiha ishlab chiqaruvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:
Chiroqchi tumani Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i A.K.Abdurahmonov
2022-yil 09-iyun.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Chiroqchi tumani Yuridik xizmat
ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti**

2022-yil «10» iyun.



D.Y.Olmosov